

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKANI INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISHNING SHAKIL VA METODLARI

Bozorboyeva Mohiniso Abdurajab qizi
JDPI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada. umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni interfaol ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishning shakil va metodlari haqida so'z borgan.

Annotation: This article discusses the forms and methods of teaching students in general secondary schools on the basis of interactive educational technologies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формы и методы обучения учащихся общеобразовательных школ на основе интерактивных образовательных технологий

Kalit so'zlar: mantiqiy masala, aqliy hujum, faollashtiruvchi mashq, muzyorar usullar, o'xshash, doirada, kaptokcha, xususiyatlar.

Keywords: logic problem, brainstorming, activation exercise, musculoskeletal methods, similar framework ,caption, features.

Ключевые слова: Логическая задача, мозговой штурм, активационное упражнение, скелетно-мышечные, методы, аналогичная, структура, подпись, особенности

O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ta'lim jarayonining nazariy va amaliy qismida olib borilayotgan o'quv faoliyati alohida o'rin tutadi. Psixologik topshiriqlar, mantiqiy masalalar va ijodiy yondashuvni talab qiladigan yechimga ega topshiriqlar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Mashg'ulotlarni olib borishda quyidagi interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq: "T- sxema", "Aqliy xujum", "Tarmoqlar(klaster) usuli", "Venn diogrammasi", "Keys stadi", "Loyihalar usuli". Ushbu texnologiya va interfaol usullardan, shuningdek turli didaktik va texnik vositalar, multimedia vositalaridan foydalanishni oldindan texnologik kartalarda va ta'lim texnologiyalarida rejalashtirib qo'yish maqsadga muvofiq. Quyida interfaol ta'lim metodlaridan namunalar keltiramiz.

Matematika darslarida «Aqliy hujum» metodidan foydalanish


Misol. 5-sinfda “To’g’ri parallelepipedning hajmi” mavzusini boshlashdan oldin, hajm tushunchasini kiritish uchun o’quvchilarga quyidagi faollashtiruvchi mashqni taqdim qilish mumkin.

Faollashtiruvchi mashq. Bo’yi 20 metr, eni 4 metr va balandligi 4 metr bo’lgan yuk mashinasining yukxonasiga qirrası 1 m bo’lgan kub shaklidagi yashiklardan nechtasini joylash mumkinligini qanday topish mumkin?

Bu savol-topshiriq o’rtaga tashlanadi va unga javob berish o’quvchilardan so’raladi. Unga javob berish jarayoni “aqliy hujum” metodi asosida olib boriladi.

Qo’yilgan muammoni yyechish yoki savolga javob topish maqsadida g’oyalarni jamlanadi va so’ng saralanadi. Eng maqbul yechimni topish bo’yicha shaxsiy g’oyalarni ilgari suradilar. Turli yechimlar taqdimoti eshitiladi, yechimlar doskaga yozib boriladi, solishtiriladi va ularning ichidan eng maqbuli tanlanadi. Yakunda xulosa chiqarilar.

«MUZYORAR» USULLARI



O‘zaro tanishuvda qo‘llaniladigan texnikalar

Muzyorar – muomaladagi tusiklarni yengib o‘tishga va o‘zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o‘zini bimalol his qilishlariga yordam beradi.

Treninga kirish jarayonida har bir ishtirokchi o‘zini tanishtiradi. Auditoriyadagilarning sonidan, kurs boshida umumiy kayfiyatidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, trener quyidagi tanishuv usullarini tanlashi mumkin:

- **Juftliklarda besh daqiqalik suxbat**, so‘ngra har bir ishtirokchi o‘zining suhbatdoshini tanishtiradi.

- **Doirada koptokcha bilan o‘ynash** - bunda qo‘liga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o‘z ismini hamda o‘zi haqidagi ma’lumotni aytishi kerak bo‘ladi.

O‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlarini top. Agar trening vaqti kam chegaralangan bulsa, tanishuvning kengroq shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, trening ishtirokchilarini 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlariga bo‘lib, har bir guruhga guruh a‘zolarini o‘zaro bog‘laydigan 5 ta umumiy o‘xshash xususiyatlarni yoki hammada har xil bulgan 3 ta xususiyatni topish topshirig‘i beriladi. So‘ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

Namoyish qilish metodining tavsifi. Har qanday ish o‘quvchilar turlariga mos holda va tez o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan topshiriq sifatida berilishi maqsadga muvofiq. Agar topshiriq sifatida berilayotgan ish ko‘proq qo‘l mehnatini talab etsa, uni o‘rgatish va egallash mumkin bo‘lgan kichik elementlarga ajratish lozim. Ayrim o‘quvchilar ishni ehtiyotkorlik va mufassal ko‘rsatib berishni talab qilishlari mumkin.

O‘quvchi duch kelayotgan qiyinchiliklarini topa olish va bu qiyinchiliklarni yengishning turlicha yo‘llarini topish orqali o‘quvchining topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishiga erishish bu o‘qituvchining san’ati hisoblanadi. O‘z navbatida bu san’at o‘quvchining duch kelayotgan qiyinchiliklari orqali o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi, qaysiki, o‘qituvchi tomonidan namoyish etish jarayonida tushunishga qiyin

boʻlgan nuqtalar oʻquvchi tomonidan topshiriqni bajara ololmaslik ehtimolini keltirib chiqaradi.

Boshqa soʻz bilan aytganda, oʻqituvchi oʻquvchilarda toʻgʻri taassurotni keltirib chikarish uchun topshiriqqa mos boʻlgan soʻzlarni va tayanch nuqtalarni topa olishi kerak. Odatda asosiy nuqtalar sezish, koʻrish yoki eshitish qobiliyatlariga aloqador boʻlsa ularni soʻz bilan ifodalash qiyin boʻladi. SHu sababdan namoyish etish jarayonida taʼriflar keltirilganda ehtiyotkor boʻlish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mamatov N, Abduholiqov J, Qahhorova M. Mantiq (oʻquv qoʻllanma). Toshkent-2004
- 2 .Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qoʻllanma.)Toshkent. —SHarqr|| 2005 yil.,
- 3 Toʻraev H.T, Azizov.I, Matematik mantiq va diskret matematika. “Tafakkur-Boʻstoni”. Toshkent-2011
4. Mamatov N, Abduholiqov J, Qahhorova M. Mantiq (oʻquv qoʻllanma). Toshkent-2004
- 5 .Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qoʻllanma.)Toshkent. —SHarqr|| 2005 yil.,
- 6 12. Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang_ich sinflarda matematika oʻqitish metodikasi. (Oʻrta maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma.) Toshkent. —Oʻqituvchil|| 2006 yil.